

SAMARQAND VILOYATIDA GASTRANOMIK VA EKO TURIZM RIVOLANTIRISH ISTIQBOLLARI (CHOR CHINOR ZIYORATGOHI MISOLIDA)

Juraqulova Farangiz Turaqul qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada gastranomik va eko turizmni Samarqandda rivojlantirish, cheka qishloqlarda turizm markazlarini tashkil etish, bizning xalqimizning eng qadimiy deyarli kishilarga ma'lum bo'lmagan taomlarini, urf odatlarini turli mamlakatlardan kelayotgan turistlarga ko'rsatish, tog'li va inson ko'ngliga manzur keladigan hududlarida eko turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, shu bilan bir qatorda O'zbekistonda turizm sohasida gastranomik va eko turizmni rivojlantirishga qaratilgan*

Kalit so'zlar: *Turizim, gastranomik turizm, eko turizm, Samarqand, Bulung'ur, Ziyoratgoh, Chor Chinor, madrasa, turist, mehmonxona.*

Samarqandni chinakam noyob shahar, deb atash mumkin! Dunyoning eng buyuk shoir va faylasuflari uni - qalb bog'i, sharq durdonasi, dunyoning ko'zgusi va hatto yer yuzi deb atashganlarida ham, ular bu go'zal shaharning barcha go'zalligi va boyliklarini tasvirlab berolmagan bo'lardilar. Samarqandning madaniy merosi juda katta. Asrlar davomida bu shahar Buyuk Ipak yo'lining asosiy markazi bo'lib kelgan. XXI asr boshlarida shahar YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan kiritildi! Samarqand hammamizga ma'lum bo'lgan tarixiy, turistik, xushmanzara shaharlardan biri. Samarqand bir qancha yillardan beri turistlarning qadami arimiydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanida Xalqaro turizm markazining ochilishiga bag'ishlangan bayram tadbirida ishtirok etdi, o'z nutqida Samarqand shahrining turizm salohiyati, turistlar oqimining ko'payayotganini ta'kidladi. "Bundan 3-4 yil oldin Samarqandga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy turistlar soni 500 ming nafardan oshmas edi. Hozirgi kunda turizmni rivojlantirish bo'yicha islohotlarimiz, qulay investitsiyaviy muhit yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarimiz tufayli Samarqandga kelayotgan xorijiy turistlar soni 2 barobar ko'paydi. Samarqand viloyatining chekka va tog' oldi tumanlari dagastranomik va eko turizm sohasiniyanada rivojlantirish va takomillashtirishlozim, chunki Samarqand viloyatining ayrim tumanlari o'zing tabiiy musofoligi va no odatiy turmush tarzi bilan kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Misoluchun Urgut va Bulung'ur tumanlari misolida ko'radigan bo'lsak, ushbu tumanlar o'zining tog'li zo'nalariva sersuv daryolari, kanal va ariq zovurlari, lalmikor yerlari va shu bilan birqatorda o'zgacha turmush tarziga egadir. Samarqandda ekoturizm ham sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Samarqand viloyati Urgut tumanida joylashgan, "Chor chinor" ziyoratgohi. Rivoyatga ko'ra, arab sarkardalaridan biri Xo'ja Abu Tolib Urgutga xukmdor bulib, buloq atrofida

4 dona chinor ektiradi. U vafot etgach (866-867) shu chinorlar yaqinida dafn etiladi. Bu joyning yana bir nomi “Xoja Chor-chinor” deb atalishining tarixi shu voqea bilan bog'liq chor-chinor majmuasi ichida 1914-yilda Nakshbandiya tariqati ta'limoti targibotchisi eshon Valixon Urgutiyning ugillari Shayx Muxiddinxon tomonidan qurilgan masjid bor. Masjiddan dastlab Madrasa sifatida foydalanilgan. Bino Abdulkodir (1868-1934) ismli usta tomonidan kurilgan. 1927 yilgacha mazkur madrasada nafakat Urgut, balki shu yaqin x,ududlardan kelgan tolibi-ilmlarga xdm saboq berilgan. Majmuaning ichki qismida bir nechta tarixiy shaxslarning kabrlari bor. Ulardan biri mashxur eshon Valixon Ismoilxuja ugli (1842-1915) bulib, u kishi Mir Arab madrasasida mudarrislik kilgan. U kishining ugillari Shayx Muxiddinxon (1875-1931) xam Urgutda yashagan. Shayx Kugbiddinxon Muxiddinxon o'gli (1906-1983) mashxur sharqshunos olim sifatida faoliyat ko'rsatgan. Majmuaning tashqari qismida eski qabriston bo'lib, o'sha davrlarda Urgut xukmdorlari shu yerga dafn qilingan. Shuningdek, bu yerda Urgut beklari tomonidan barpo qilingan Madrasa va masjid xam mavjud bulgan. Chor-Chinorning janubiy tomonidan chiqib turgan buloq barchani xayratga soladi. Bu buloqda aytilishicha, kab'a rasmi ko'rinar ekan. Aynan o'sha kab'a rasni ko'rish maqsadida bir qancha turistlar tashrif buyuradi. Chor Chinor ziyoratgohidan turistlar soni yildan-yilga oshsa oshadiki lekin kamaygani yo'q. Chor chinor uzoq vaqt davomida chinorlar o'sib hiyobon holiga kelgan va u yerda buloq joylashgan, uning atrofiga turli joylaridan sayohlar, mahalliy aholi kelib dam olib ketishadi. Bu yerdagi eng baland daraxtning uzunligi 16 metrni eng kichik yoshdagi daraxt esa 600 yoshni tashkil etadi. U yerda katta daraxt ham bo'lib uning kavagida muzey tashkil etilgan va aytishlaricha bu kavak oldin darveshlar yig'ilib maslahat qiladigan joy bo'lgan. Shunaqangi juda ko'p milliy taomlari va sayohat qilishga arzigulik maskanlari bor bo'lgan bu hududda deyarli gastronomik va eko turizm rivojlanmagan. Bu yerda turizmni rivojlantirish uchun asosiy e'tiborni reklamaga qaratish lozim agar bu yerlar haqida ko'plab insonlar bilsa ularning bu yerlarga kelishiga va ular bilan tanishish istagi uyg'onadi. Avvalo buning uchun milliy taomlar tayyorlanishi, turlari, foydali tomonlari va boy tarixi haqida televideniya, axborot vositalarida va turli xil bannerlar orqali reklama qilinsa insonlarda qiziqish uyg'onadi. Albatta bu yer haqida hamma bilgandan keyin ularni qabul qiladigan joy kerak bo'ladi. Bu yerlarda uzoqlik masofasi unchalik uzoq bo'lmaganligi sababli bitta turistlarni yoki turli xi sayohlarni qabul qiladigan joy yani turistik mehmonxona tashkil etilsa hamma sayohlar shu yerga keladi va joylashishadi. Turistik Mehmonxona o'zi bitta turistik kompaniya vazifasini bajaradi ya'ni ular turistlarni joylashishi, texnikasi, xavfsizligi va boshqa holatlar uchun javobgar bo'ladi. Ularning sayohat jarayoni ham nodatiy bo'ladi, ular sayohat davomida shu yerda mahalliy xalqning taomlarini va ularning qanday tayyorlanishini ko'rsatib boradilar, shu bilan bir qatorda ularning o'zlarini ham tayyorlanish jarayoniga qatnashishiga va o'zlari tayyorlab ko'rishiga imkoniyatlar beriladi. Ular bilan albatta bu xavfsizlik hodimi, malakali oshpaz,

tarjimon va umumiy turistik bilimga ega bo'lgan rahbar ham bo'ladi. Ular bu ishlarni sayohati davomida amalga oshiradilar va ekologik joylarga tashrif buyuradilar. Bunday mehmonxonalarni shunday tumanlarda bittagacha tashkil etsa bo'ladi chunki turistlar soni va tashrif buyuruvchilar soni ko'p bo'lmasligi mumkin shuning uchun bunday turistik joylarni ham ko'p tashkil etish o'zini oqlamaydi. Agar shunday turistik kompaniya Samarqandning o'zida tashkil etilsa ushbu kompaniya o'zining dam oladigan markazlarni turistik salohiyatga ega bo'lgan tumanlarda ochsa bo'ladi. Ya'ni hamma turistlar asosiy kompaniyaga kelishadi va ularni keyin o'zining markazlariga olib boradi ularni u yerda atrof va turli xil ko'ngilochar joylarga sayohat tashkilashtirishadi. Ular bilan milliy taomlarni tayyorlashni, milliy o'yinlarini o'yanashni va urf odatlarini o'rganishlari mumkin lekin eng muhim jihati shundaki ular mahalliy aholi bilan suhbatlashishi va ularni yaqindan o'rganishi, shu bilan bir qatorda ularning hayot tarzi bilan tanishishlari mumkin. Bu qanday ammalga oshiriladi: bizning o'zbek halqi bilamizki o'zning mehmon do'stligi bilan ajralib turadi bu degani ular hech shubhasiz o'zlarining honadonlarini tanishtirishga qarshi bo'lmaydi va ular bilan yaqin aloqada bo'lishadi. Ularni o'zbek xalqi urf odatlarini mahalliy xalqni yaqindan kuzatgan holda o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimiz juda ko'p turistik joylar va resurslarga boy hisoblanadi. Lekin ushbu ne'matlarni, ushbu madaniy merosni va shunday ajoyib taomlarini, urf odatlarini, ekologik maskanlarini hanuzgacha dunyo miqiyosida yoya olamyapmiz, bulardan unumli foydalana olmayapmiz. Hali bundan boshqa juda ham ko'p o'zlashtirilmagan joylar hali bizlarga nomalum bo'lgan taomlar anchani tashkil etadi. Biz bu momolarni hal qilishimiz lozimdir va bu bizning madaniy va tabiiy meroslarimizni keng miqiyosida jar solishimiz va unumli foydalanishimiz kerakdir. Bu momolarni oson va kam harajat yo'l bilan hech qanday ekologik atrof muhitga zarar yetkazmasdan tashkil etish yo'li aytib o'tildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://t.me/Press_Secretary_Uz/2282 «O'zbekiston MET» AJ Axborot xizmati <http://t.me/uzmetaxborotxizmati>.
2. S. Sulmatov, A. Berdimurodov. SAMARKAND YODGORLIKLARI. Samarkand "Imom Buxoriy xalkaro markazi" 2017. B 144
3. E. G'ulomsaxarov, F. Amirova, A. Amirov. Iqtisodiyotni rivojlantirishda ichki turizmning o'рни va ahamiyati. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021. B. 172
4. <https://kun.uz/uz/news/2018/03/31/uzbekistonda-turizm-istikboli-sajelik-ucun-angi-junalislar>

5.Salimov M, Ulug'murodova F. O'zbekiston iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning ahamiyati.Oriental Renaissance:innovative educational, natural and social sciences. VOLUME 1|ISSUE 2 . 2021. B.120

6..Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi Toshkent "O'zbekiston " nashryoti ,2021 B.-173

7.Salimanova S., Tursunova S. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini ma'muriy-huquqiy tartibga solish // jamiyat va innovatsiyalar. - Toshkent, 2021 yil. 115-120 betlar.

7.Juraqulova F. "O'zbekistonning xaqaro turizm sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorligi." Pedagog respublika ilmiy jurnali

8. X .M . M amatqnlv, A .B . Bektemirov, I .S . Tuxliyev, A .N . Norchayev "Xalqaro turizm" o'quv qo'llanma.